



**MO'GULLAR ISTILOSINI NATIJASIDA
MOVAROUNNAHRDA YUZ BERGAN ETNIK
JARAYONLAR**

Beknazarov Sobirjon Barotboy o'g'li
*Xalqaro innovatsion universitet Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrasida tarix fani o'qituvchisi*



**ETHNIC PROCESSES THAT OCCURRED IN
TRANS-NAHRAN AS A RESULT OF THE
MONGOLIAN CONQUEST**

Beknazarov Sobirjon Barotboy ugli
*History teacher of the Department of Social and Human
science in International Innovative University*



**ЭТНИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ,
ПРОИСХОДИВШИЕ MOVAROUNNAHRE В
РЕЗУЛЬТАТЕ МОНГОЛЬСКОГО
ЗАВОЕВАНИЯ**

Бекназаров Собиржон Баротбой угли
*Преподаватель истории кафедры социальных и
гуманитарных наук Международного
инновационного университета*

E-mail: bromx7@gmail.com

Orcid: 0009-0008-6409-2963

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15283414>

Annotatsiya. Maqolada mo'g'ullar bosqini sababli ular bilan birga kirib kelgan qabilalar, geografik joylashuv o'rni, turk-mo'g'ul qabilalarining kirib kelishi, Temuriylar davlatida ushbu qabilalarining nufuzi, turk-mo'g'ul qabilalarining tarixan shakllanishi o'rganilgan. Chingizxon boshliq qavmlarning kirib kelishi O'rta Osiyo turkiy qabilalarining hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va keyinchalik ular mahalliy aholi bilan aralashib, o'troqlashib borganlar. XIV-XV asrlardagi etnik jarayonlarni yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: barlos, arlot, jaloyir, qavchin, Chig'atoy, Ila, Ibn Arabshoh, O'rta Osiyo, Onon, Amudaryo, Rashididdin, Amir Temur, Bobur, Balx, qipchoqlar.

Аннотация: В статье рассматриваются племена, пришедшие с монгольским нашествием, их географическое положение, приход тюрко-монгольских племен, влияние этих племен на государство Тимуридов, а также историческое формирование тюрко-монгольских племен. Приход племен во главе с Чингисханом оказал значительное влияние на жизнь тюркских племен Средней Азии, впоследствии они смешались с местным населением и обосновались там. Сделана попытка пролить свет на этнические процессы XIV–XV вв.

Ключевые слова: Барлос, Арлот, Джалойир, Кавчин, Чигатай, Ила, Ибн Арабшах, Средняя Азия, Онан, Амударья, Рашид ад-Дин, Амир Темур, Бабура, Балх, кипчаки.

Annotation: The article studies the tribes that came with the Mongol invasion, their geographical location, the arrival of the Turkic-Mongol tribes, the influence of these tribes in the Timurid state, and the historical formation of the Turkic-Mongol tribes. The arrival of the tribes led by Genghis Khan had a significant impact on the life of the Turkic tribes of Central Asia, and later they mixed with the local population and settled down. An attempt was made to shed light on the ethnic processes of the 14th-15th centuries.



Key words: Barlos, Arlot, Jaloyir, Qavchin, Chigatai, Ila, Ibn Arabshah, Central Asia, Onan, Amu Darya, Rashid al-Din, Amir Temur, Babur, Balkh, Kipchaks.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

XIII asr o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyoga mo'g'ullar hujumidan so'ng jaloyir, barlos, qavchin, arlot kabi guruhlarining ko'chish jarayoni sodir bo'lgan. Chingizxon qo'shinlari tarkibida kelgan qabilalarning ko'pchiligi mo'g'ul deb atalganiga qaramay, aslida turkiy qabilalar edi.

Keyingi tadqiqotlar Chingizxon qo'shinining tarkibi 95 foizi turkiy qabilalar ekanligini isbotlamoqda. XIII-XIV asrlar birinchi yarmida olchin, mo'ng'ul, sulduz, o'yrot, bahrin, merkit, mang'it, qo'ng'iroq va boshqa qavmlarning ba'zi guruhlari O'rta Osiyoga kelib o'rtnashishgan. Bu qavmlarning O'rta Osiyoga kelishi turkiy qavmlar hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Ko'chib kelgan turkiy qavmlar mahalliy turkiy aholiga o'xshash bo'lsada, ammo ba'zi bir jihatlari bilan ham ajralib turgan.

XIII asrning 60-yillarida Chingizxon saltanati inqirozi boshlanadi. Chig'atoy Chingizxonning ikkinchi o'g'li bo'lib, uning 1227-yildagi vasiyatiga ko'ra, Chig'atoyga ulus sifatida butun Markaziy Osiyo, sharqiy Turkistongacha va hattoki Afg'oniston yerlari tekkan. U 1227-1241 yillarda xonlik qilgan. Chig'atoyxon avlodi Movarounnahr, Yettisuv, Qo'shg'ar, shimoliy Afg'onistonni o'z tarkibiga birlashtirgan va tarixda Chig'atoy ulusi nomi bilan atalgan ulkan davlatni 140 yil idora qilgan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Mo'g'ullar istilosi natijasida Movarounnahrda yuz bergan etnik jarayonlar haqida Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", V.V. Bartoldning "Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии", I.P. Petrushevskiyning "Рашидидин, Сборник Летописей", S.A. Amanjolovning "вопросы диалектологии и истории казахского языка. Алма-Ата", Karim Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni", Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", O.Bo'riyevning "O'zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar", O.Bo'riyevning "Sohibqiron Amir Temur davri qadriyatlari etnotarixiy lavhalarda", Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», A.Yu. Zuyevning "Джами ат-тарварих" Рашидидина как источник по ранней истории жалойиров. "Письменные памятники востока, историко-филологические исследования" kabi asarlarda qisman yoritilgan.

TADQIQOT NATIJALARI.

Ma'lumki, 1219-1224 yillardagi mo'g'ullar istilosi davrida O'rta Osiyoga kirib kelgan Chingizxonning 12 ta qabila qo'shinining 4 tasi (jaloyir, barlos, arlot va qavchin) mo'g'ullar bo'lgan. XIII asrning 60-yillarida tashkil topgan Chig'atoy ulusining Ila daryosining janubi-sharqiy mintaqalaridan to Amudaryogacha bo'lgan



hududlarda tashkil topish munosabati bilan, uni harbiy jihatdan himoya qilish uchun har biri ming uyli turk-mo'g'ul qabilalari ko'chirib keltiriladi. Ular aynan barlos, jaloyir, qavchin va arlot qabilalari bo'lib, ulardan jaloyirlar Angren havzasi va Xo'jand atrofiga kelib o'rnamadilar.

Ibn Arabshoh O'rta Osiyoda XIII-XIV asrlarda qavchinlar (Amudaryo shimoli, Buxoroning sharqiy hududlarida), barloslar (Sirdaryoda), arlotlar (Afg'onistonning shimoli, Amudaryoning janubida) ancha nufuzli qabilalar ekanini bayon etgan edi.[1.72.] Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sining "Muqaddima"sida yozilishicha, mo'g'ullar naslidan bo'lgan jaloyirlar har biri ming oilali 70 urug'lardan tashkil topgan Chingizxon saltanatining ko'chmanchi qabilalar ittifoqidan bo'lgan.[2.39.]

Rashididdin va Abulg'oziy Bahodirxonning yozishlaricha, jaloyirlarning ilk ajdodlari Mongoliyaning Onon daryosi havzalarida yashaganlar. XIII asrning birinchi choragida ularning bir qismi Ila daryosi havzasiga kelib o'rnamadi. Shu asrning 60-yillarida esa, ming oilali jaloyirlar Chig'atoy ulusining harbiy himoyachilari sifatida Movaronnahrga kirib kelib, Ohangaron vodiysi va Xo'jand atroflariga kelib o'rnamadilar. Rashididdin jaloyirlarni turklashgan mo'g'ullar deydi, V.V Bartold[3.173] va I.P.Petrushevskiy [4.29]lar esa jaloyirlarni mo'g'ul tilli xalq bo'lgan, deydi. Tilshunos olim S.A.Omonjolov esa, Rashididdinga suyanib, jaloyir qabilasi tarkibida quriqin (bo'ri), tulangit urug'lari bo'lganligini qayd qiladi.[5.43;45]

K.Shoniyozov quriqin yoqut va Yenisey (Enasoy) qirg'izlarning (xakaslar) ilk ajdodlari turk tilida so'zlashuvchi xalqlar edilar,[6.385]deydi.

Jaloyirlar Amur Temur va Temuriylar davlatiga xizmat qilgan. Masalan, Bahrom jaloyir dastlabki paytlarda Amir Temurga sadoqat bilan xizmat qilgan, u bilan Seyistondagi janglarda qatnashgan. Amir Temurning nabirasi Jahongir qo'shini tarkibida jaloyirlar boshlig'i Bahromning o'g'li Odilshoh mulozim sifatida (harbiy qo'shin boshlig'i) xizmat qilgan.[7.65] Ammo, u xiyonat yo'lga o'tib, Saribug'a qipchog' bilan birga Amir Temurning Xorazmda yurishlari chog'ida Samarqandga yurish qiladi. Temurzoda Jahongir ularni Karmana yaqinida uchratib, qaqshatqich zarba bergach, jaloyirlar va qipchoqlar Dashti Qipchoqqa qochib, jon saqlaydilar. Amir Temur esa, Movarounnahrda jaloyirlar ulusini tarqatib yuboradi. Boshliqlari xiyonatidan norozi bo'lgan bir qism jaloyirlar Angren vohasida qolib, Amir Temurga sidqidildan xizmat qilishda davom etadilar.

Amir Temur urug'i hisoblangan barloslarga kelganda, ularning vatani Onon va Kerulen daryosi havzalarida bo'lgan. Barlos-barulas, ballos-o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri hisoblanadi. Bu qavmning etnik tarixi hanuzgacha chuqur etnologik ilmiy tadqiq qilinmagan.[8.144;148]



Muarrixlar fikricha, barlos so‘zi mo‘g‘ulcha semiz, kuchli ma‘nolarini bildirib, turkiy xalqlar mo‘g‘ullardan o‘zlashtirgan. Mazkur so‘z “lashkarboshi”, “yo‘lboshchi” va “botir jangchi” ma‘nolarini ham anglatadi. Bu etnonim barlos qavmi namoyondalari jasorati bilan bog‘liq fazilatni ham bildiradi.[9.17;18] Muarrix Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”) asarida “barulos” deyilgan.

Mashhur muarrix Rashididdin Fazlulloh “Jome’ ut-tavorix” asarida turkiy urug‘lar haqida shunday ma‘lumotni keltirgan: “Hozirgi vaqtda ko‘pgina urug‘lar o‘zini mansabdor va ulug‘ ekanini ko‘rsatish uchun Chingiz va uning urug‘i mo‘g‘ul bo‘lganiga qarab o‘zini mo‘g‘ullardan qilib ko‘rsatadilar. Jaloyir, totor, o‘yrot, unгут, kerayit, nayman, tongut kabi qabilalar ham qadimgi vaqtda mo‘g‘ullarni tan olmaganiga qaramasdan, qaysidir omillarga asoslanib o‘zlarini mo‘g‘ullardanmiz deyishadi. Holbuki, qadimgi zamonlarda mo‘g‘ullarni o‘zi ham cho‘llarda yashovchi turkiy xalqlarning bir bo‘lagi bo‘lgan, xolos”. Bu mulohazani barlos urug‘iga ham bevosita tegishli deyish mumkin.

Chingizxon davrida ular ishonchli harbiy kuchga ega edilar. Kubalay va Qorachur barloslar Chingizxonning nufuzli amirlaridan bo‘lganlar.[10.21] XIII asrning birinchi yarimida ularning bir qismi Ila daryosi sohillariga, Sharqiy Turkistonning g‘arbiy viloyatlarida (Turfon va uning atroflariga) ko‘chib kelib, shu asrning 60-yillarida Chig‘atoy ulusining harbiy tayanchlaridan biri sifatida ming oila Kesh viloyatiga ko‘chib o‘tadilar. Amir Temurning ota-bobolari ana shu barloslarning bekalaridan bo‘lgan.

XIV asrning o‘rtalariga kelib, barloslar til jihatidan mutlaqo turkiylashib ketadilar. Shu bois bo‘lsa kerak, Movarounnahr barloslari endi o‘zlarini barlos turklari deb ataydilar. Barlos amirzodalari orasidan Amir Temurdek jahongir yetishib chiqib, barloslar Amir Temur davlati va uning vorislari davrida mamlakat siyosiy hayotida juda katta nufuzga ega bo‘lganlar. Barloslar Amir Temurning Movarounnahrni chingiziyzoda mo‘g‘ullar (Tug‘liq Temur, Ilyosxo‘ja) zulmidan ozod qilish uchun kurashlarda faol qatnashganlar. Shuning uchun ularning ayrim guruhlarini Amir Temur va Mirzo Bobur davrida Janubiy Tojikiston, Afg‘oniston, Hindiston va Kashmirmirgacha borib o‘rnashib qolganlar.

Barloslarning etnik tarkibi haqida ham olimlar orasida bahslar mavjud.V.V.Bartold barloslarni mo‘g‘ul tili xalqlardan deydi. Rashididdin esa, barloslarning ilk ajdodlari turk qavmi bo‘lgan edi. Keyin yozma manbalarida mo‘g‘ullarining nurun qabila ittifoqi tarkibida tilga olinadi. Ular nurun mo‘g‘ullari qabila ittifoqi tarkibida uzoq birga bo‘lib, mo‘g‘ul tili va urf-odatlarini yaxshi o‘zlashtirgan. Yozma manbalarni sinchiklab o‘rgangan xitoyshunos olim A.Yu.Zuyev



barloslar kelib chiqishi jihatdan turkiy xalq bo'lgan degan xulosaga keladi.[11.178;185]

Amir Temur va uning vorislari ham o'zlarini barlos turklari deb ataganlar. Shuning uchun ham Amir Temur 1370-yilgi Balx qurultoyida turk-mo'g'ul an'anaviy udumlariga amal qilib, Termiz sayyidlari va amirzoda harbiylarining xon sifatida davlat boshlig'i bo'lishiga rozilik bermagan. So'ng uning taklifi bilan Chingiziyzoda Turalmishxonni xon qilib ko'targanlar. Barloslardan bo'lgan Mir Alisher Navoiy, ota urug'i barloslardan, ona urug'i dug'lat bo'lgan Mirzo Bobur ham o'zlarini barlos turklari deb ataganlar va turkiy tilda ijod qilganlar.

Chingiziyzoda Chig'atoy ulusi saltanatini harbiy qo'riqchilaridan biri sifatida qavchinlar XIII asrning 60-yillarida Farg'ona vodiysiga va Qashqadaryoning G'uzor atroflariga kelib o'rnamadilar. Qavchinlarning ayrim guruhlarini Qoshg'arda ham yashaganlar. "Tarixi Rashidiy"da qavchin qadimgi turkiyda "harbiy" degan ma'noni anglatadi deyilgan. Qavchinlar kelib chiqishi jihatdan turkiy tilda so'zlashuvchi qavmlar ekanligi tarixiy haqiqatdir.

Mazkur etnik guruh haqida Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Chingizxonning yurishi voqealaridan boshlab ma'lumotlar bor. Amir Temur saltanatida ham barloslardan so'ng qavchinlar eng faol qavm sanalgan va qavchin urug'iga mansub shaxslar ismlari XIV asrning ikkinchi yarim tarixiy voqealaridan boshlab, to Amir Temur vafotidan keyingi kechinmalargacha eslatilgan. Amir Temur 1370-yili Balx yurishidan g'alaba bilan qaytgach, yurishda fidoyilik ko'rsatilgan bir necha qavchin harbiylari (Alqa qavchin, Ardasher qavchin, Tamuka qavchinning birodari Qimori Inoqlar) lashkar amiri unvonlari bilan taqdirlanadi. Jangchi qavchinning o'g'li Musika qavchinga Xorazmni boshqarish topshiriladi. Bunday topshiriqlar boshqa ko'pgina qavchinlarga ham nasib etgan.

Chig'atoy ulusi saltanatining harbiy qo'riqchilaridan biri sifatida arlotlar XIII-asrning 60-yillarida Surxandaryo viloyatining janubiga Termiz atroflari va Shimoliy Afg'oniston hududlariga kelib joylashadilar. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida yozilishicha, arlotlar Afg'onistonning Xuroson viloyatida yashagan turkiy urug'lardan. Arlotlarning ilk vatani Mo'g'uliston bo'lgan. XIII asrning birinchi choragida ular Yettisuvga kelib o'rnamadilar.

Ular dastlabki Chig'atoy ulusini boshqargan Amir Qazag'anga, so'ng Amir Temurga xayrixoh bo'lganlar. Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asariga ko'ra, arlotlar Chig'atoy ulusining sharqiy va g'arbiy qismlarida yashab, XIV-XV Amir Temur va temuriylar saltanatida ancha kuchli siyosiy mavqega ega bo'lgan. Arlot urug'i Amir Temurning hokimiyatiga kelishi va undan keyingi harbiy



yurishlarda faol qatnashganlar hamda ularning vakillari amirlik unvonlariga sazovor bo'lganlar. Muayyad arlot Amir Temurning singlisi Shirinbeka og'aning eri bo'lgan.

Chig'atoy ulusining harbiy jihatdan himoya qilishga olib kelingan barlos va jaloyir, qavchin va arlot qabilalari Movaronnahr hududlarga joylashib olgach, asta-sekin mahalliy aholiga aralashib ketdilar. Chig'atoy ulusining sharqiy qismida (Yettisuv va Sharqiy Turkistonda) yashovchi mo'g'ul qabilalari allaqachon til jihatdan turklash bo'lishiga qaramay, qadimgi mo'g'ul an'alarini uzoq vaqt unutmaganlar va ularga an'anaviy amal qilib kelganlar. Ular Chig'atoy ulusining Movarounnahr viloyatlariga avvaldan kelib o'rinish qolgan va bu joylarda qadimgi yashab kelayotgan, o'z urug' va qabila nomlarini allaqachon unutib, mahalliy tub joyli etnik birliklarga aylanib ketgan qondosh va qarindoshlarini kamsitib, qaraunas (aralashgan-metis) xalq deb ataydilar.

O'z navbatida, Movarounnahrning yerli aholisiga aylanib ketgan turkiylar va turkiylashgan satrlar esa, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy tili ko'chmanchi turk-mo'g'ul qabilalarini masxara qilishib, "jete"lar (bosqinchilar) deb ataydilar. Hatto, Movarounnahrda yashovchi turklashgan mo'g'ullar ham mahalliy aholiga aralashib, asta sekin mo'g'ul atamasini unutib, o'zlarini "chig'atoy" deb atay boshlaydilar. Keyinchalik bu nom, ya'ni "chig'atoy" Movarounnahrning o'zbek va tojiklariga tegishli o'troq aholiga nisbatan ham ishlatildi.

Chig'atoy ulusining tashkil etilishi munosabati bilan bu zaminga kirib kelib, uning turli viloyatlarida o'rinish qolgan jaloyir, barlos, qavchin va arlot qabilalar va ularning o'rtoqlashib ketgan guruhlariga hisobiga, shakllangan o'zbek xalqining etnik tarkibi birmuncha boyidi. Shuningdek, mo'g'ullar hukmronligi davrida (XIII-XIV asrning 60-yillarigacha) Movarounnahrda turklashgan mo'g'ul qabilalarining kirib kelishi kuzatiladi. Antropologik materiallar tahliliga ko'ra, mo'g'ullarning O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga ilk bor kirib kelishi mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga tegishli ekanligi aniqlangan.[12.93]

Mo'g'ul tipli elementlar janubi-sharqiy Orol bo'ylarida, Zarafshon vodiysining shimoli-g'arbida, Tangritog' va Oloy tog'lari adirlarida uchraydi. Keyingi yillarda antropologik seriyalar asosida ularning kirib kelishining uch bosqichi aniqlangan. Birinchisi mil. avv. I mingyillikning o'rtalari materiallarida, ikkinchisi XI-XII asrlar, ya'ni qoraxitoy (kidan)larning kirib kelishi, uchinchisi XVI-XVII asrlar kraniologik materiallarida kuzatiladi. Ammo, arxeologik materiallarda bu jarayonlar ko'zga tashlanmaydi. Birinchi va ikkinchi bosqich antropologik materiallarida kuzatilgan mo'g'uliy qiyofa hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston hududlarida keng ko'lamda uchramaydi. Aholining asosiy qismi, Yevropa irqining sharqiy O'rta Yer dengiz tipining protoyevropoid tipi bilan qarishuvidan hosil bo'lgan Yevropa irqining



“O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi”da (Qoraxoniylargacha), uchinchi bosqich antropologik materiallarida, mo‘g‘uliy tip, ya‘ni Janubiy Sibir tipi sezilarli darajada ko‘zda tashlanadi. Bular Chingizxon istilolar va Dasht Qipchoqdan XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshliq 92 bo‘vli ko‘chmanchi o‘zbek etnik guruhlarining kirib kelishi bilan bog‘liq edi. Bu etnik manzara yozma manbalarda tilga olinadi. [13.83;93] Chunki Dashti Qipchoq cho‘li, ayniqsa, uning shimoli-sharqiy viloyatlari turkiy va mo‘g‘uliy etnik qabila va qavmlarning integratsiya maydoni bo‘lib, turkiy tilli aholining antropologik qiyofasida mo‘g‘uliy qiyofa kuchli edi. Xuddi shu holatni Qozog‘iston va Qirg‘izistonning shimoliy va shimoli-sharqiy viloyatlarida ham kuzatiladi.

XIV asrning ikkinchi yarmiga kelganda ularning katta qismi shu qadar mahalliy aholi bilan aralashib ketgan edilarki, ular faqat turkiyda so‘zlashadilar. [14.279]

Ibn Battutaning xabar berishicha, Chig‘atoy ulusi g‘arbiy qismning sultonlari Kebekxon (1318-1326) va Tarmashirin (1326-1334) turk tilida erkin so‘zlashganlar. [15.84;86]

Ta‘kidlash joizki, XIII-XIV asrlar ichida Movarounnahrda kirib kelgan turklashgan mo‘g‘ul qabilalari birdaniga Mongoliyadan chiqib, bu zaminga kirib kelmagan. Ular guruh-guruh bo‘lishib, avval Dashti Qipchoqning Yenisey (Enasoy) havzalarida, Sharqiy Turkistonda va Yettisuv viloyatlarida turkiy qabilalari bilan yonma-yon va aralashib yashab, Movarounnahrda kirib kelganlarida o‘z tillarida emas, faqat turkiyda so‘zlashadilar. Ular katta qismi o‘z ona vatanlarida, turli etnosiyosiy birliklar tarkibida qolib ketganlar. Ulardan ajralib chiqqan ayrim guruhlariga O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘idagi viloyatlarga, Xorazm va Toshkent vohasiga kelib o‘rnashganlar. Misol uchun qipchoqlar tarqalgan mintaqalar ko‘z o‘ngimizga keltirsak, ular XIV-XV asrlarda guruh-guruh bo‘lib, Shimoliy Kavkazda, Qrimda, Volga bo‘ylarida, Ural tog‘oldi mintaqalarida, Dashti Qipchoqning qismida, Yettisuvda yashar edilar. Amir Temur Sirdaryoda yashovchi qipchoqlarni Movarounnahrning ichki hududlariga ko‘chirgan. Ammo, bu chorvador qabilalarning Movarounnahr va Xorazmga guruh-guruh bo‘lib kirib kelishi bu zaminda qadimdan kelayotgan tub joyli o‘troq turkiy va forsiy tilli aholi etnik tarkibini o‘zgartirib yubora olmagan. Aksincha, bu joylardagi etnomadaniy muhit ularni o‘z ta‘siriga olib, o‘rtoqlashishini tezlashtirgan.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, XIII-XIV asrlarda O‘rta Osiyo va Ikki daryo oralig‘iga kelib o‘rnashgan turkiy va turkiylashgan mo‘g‘ul qavmlarining bir qismi mahalliy aholiga aralashib ketgan bo‘lsa, boshqa bir guruhi Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy yurishlarida qatnashib, so‘ngra Boburiylar hukmronlik



qilgan hududlarda qolib ketishgan. Arlot, qipchoq, nayman, mo'g'ul guruhleri Afg'onistonda, arg'unlar Toxariston va Afg'onistonda, jaloyirlarning salmoqli qismi shimoliy Eron va Ozarbayjonda istiqomat qilishgan. Aynan shu davrda turk-mo'g'ul qabilalarining ayrim guruhleri Movarounnahr va unga tutash hududlarga kelib joylashadilar va ularning kambag'al qismi mahalliy aholining ta'sirida o'troqlashib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. K.1. 72-bet.
2. Bo'riyev. O. Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sida Markaziy Osiyo aholisining etnik-hududiy holati haqida ma'lumotlar. O'zMU xabarlar. T:2013. -39 bet.
3. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Т.5.С-173.
4. Petrushevskiy I.P. Rashididdin asariga kirish so'zi. Qarang: Рашидиддин, Сборник Летописей. 1952,т.1. С.29.
5. Аманжалов С.А. вопросы диалектологии и истории казахского языка. Алма-Ата. 1959. С.43-45.
6. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.-T: «Sharq»,2001.385-bet.
7. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. –T.: 1996. – 65-bet.
8. O. Bo'riyev. O'zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar: Samarqand, 2008. B.144-148.
9. O. Bo'riyev. Sohobqiron Amir Temur davri qadriyatlarini etnotarixiy lavhalarda. – Qarshi, 2015. 17-18-betlar.
10. Nizomiddin Shomiy. «Zafarnoma»-T:1996.-21-bet.
11. Зуев А.Ю “Джами ат-тарварих” Рашидиддина как источник по ранней истории жалайиrow.
12. “Письменные памятники востока, историко-филологические исследования” Ежегодник.Москва. 1972.С.178-185
13. Ходжаев Т.К.Краткие итоги изучения антропологии Средней Азии в связи с проблемами этногенеза узбекского народа. Сб. “Материалы к этнической истории населения Средней Азии» Изд. «Фан», Т:1986.С.93.
14. Шаниязов К.Ш. Некоторые итоги этнической динамики и этначеских связей узбеков в XIV-XVII в.в Сб. «материалы к этнической истории Средней Азии». Изд. «Фан», Т:1986. С.83-93
15. Греков.Б.Д. Якубовский А.Ю.золотая Орда и ее падение. М-Л.,1950.С.279.
16. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествие по Средней Азии. М., 1998 .С. 84,86.